

## IKKINCHI TILDA (INGLIZ TILI MISOLIDA) TINGLAB TUSHUNISH KO‘NIKMASINI BAHOLASHDA TURLI XIL MASHQLARNING O‘RNI

**Matmurotova Umida Baxtiyor qizi**

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti stajyor-o‘qituvchisi

E-mail: [matmurotova-u96@mail.ru](mailto:matmurotova-u96@mail.ru)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ikkinchi til ya’ni ingliz tilida tinglab tushunish ko‘nikmasini baholashda turli xil topshiriqlarining o‘rni haqida hamda ularning turlari va foydalanish yo‘llari haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** audiomaterial, intensiv tinglash, podkast, ko‘nikma, topshiriq, o‘z-o‘zini baholash

### THE ROLE OF VARIOUS TASKS IN ASSESSING LISTENING COMPREHENSION SKILLS IN A SECOND LANGUAGE (ENGLISH)

#### ABSTRACT

This article is dedicated to the role of various tasks in the assessment of listening comprehension skills in the second language, i.e. English, and about their types and ways of use.

**Key words:** audio material, intensive listening, podcast, skill, task, self-assess

Chet tilini o‘qitishda tinglab tushunish eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Tinglab tushunish ko‘nikmasiga kengroq tasnif beradigan bo‘lsak, bu jarayonda nutq faoliyati turlaridan gapirish, o‘qish, yozuv keng ko‘lamda ishtirok etishini ko‘rishimiz mumkin. Buning natijasida esa, ikkinchi tilda tinglab tushunishga doir biron mashq qildirish orqali o‘rganuvchilarning qolgan 3 ko‘nikma (o‘qish,

yoʻzish, gapirish) larini ham rivojlantirish imkoniyatiga ega boʻlamiz. Ammo bu jarayonlarni tashkil etishda ushbu koʻnikmani rivojlantirish hamda baholashda oʻquvchilarning ehtiyojlaridan va darajalaridan kelib chiqib mashqlar yaratish muhim rol oʻynaydi.

Tinglab tushunish qobiliyatini baholashda eʼtibor berishimiz kerak boʻlgan turli jihatlar mavjud, bu omillarni tinglash jarayonlarining turlari deb atash ham mumkin.

Quyida ularning besh turi haqida maʼlumotga ega boʻlamiz.

**Intensiv:** bu tur orqali asosiy fikrlarni tinglash koʻnikmalarini; tafsilotlar uchun tinglash; kontekstdan maʼnoni taxmin qilish; talaffuz; lugʻatni mustahkamlash mumkin.

**Tanlab javob qaytarish:** qisqa muddatli tinglash mashqini qilish orqali, unga moslab javob berish.

**Tanlangan:** tinglashning bunday turi oʻquvchidan maʼlum bir maʼlumotni tinglashni talab qiladi.

**Keng qamrovli:** biror narsa haqida umumiy tasavvurga ega boʻlish uchun uzoq maʼruzalar yoki suhbatlarni tinglash. Mazmunni, asosiy fikrni tinglash va xulosa chiqarish samarali tinglashning bir qismidir.

Ikkinchi tilda tinglab tushunish koʻnikmasini baholashda qoʻllaniladigan mashqlarning bosqichlari quyidagilardan iborat:

1) tinglashda kutiladigan qiyinchiliklar bartaraf etiladi. Bunda oʻqituvchi audiomatnni eshitib koʻradi va maʼlum bir oʻquvchilar guruhi uchun qiyin boʻladigan qismlarni bartaraf etadi. Tushunishga tayanch boʻladigan oʻquv vositalarini tayyorlaydi.

2) audiomatnni birinchi eshitish boʻyicha koʻrsatma (topshiriq) beriladi. Bunda bir xil audiomatn bir necha marotaba eshitalishi mumkin ammo har safar topshiriqlar turi oʻzgaradi.

3) tushunganlik topshiriq yordamida tekshirib koʻriladi;

4) ikkinchi marta eshitishga topshiriq beriladi;

5) tekshirib koʻriladi va h.k.

Tinglab tushunish ko‘nikmasini baholash uchun eng ko‘p tarqalgan mashqlardan quydagilarni keltirishimiz mumkin.

<b>Fonologik va morfologik elementlarni toppish</b>	
Tinglovchi eshitadi	He is Uzbek
Tinglovchi o‘qiydi	A) He is Uzbek B) She is Uzbek

<b>Parafrazani toppish</b>	
Tinglovchilar eshitadilar	I am Sardor and I come from Uzbekistan
Tinglovchi o‘qiydi	A) He wants to go to Uzbekistan B) Sardor is Uzbek

<b>Tanlab javob qaytarish</b>	
Tinglovchi eshitadi:	How much does the coat cost?
Tinglovchi o‘qiydi	A) about \$10 B) about an hour C) Yes, I did

### Yopiq test

I am Umida. I always \_\_\_\_\_ up at 6 o‘clock in the morning then I \_\_\_\_\_ my room and go to the kitchen. After that, I \_\_\_\_\_ breakfast with my family. Then I put my clothes on and \_\_\_\_\_ my sisters prepare their school bags. Next, I leave my home at 7:30 and \_\_\_\_\_ the bus.

<b>Ma‘lumot uzatish</b>	
Tinglovchilar ko‘rishadi	Rasm yoki video
Tinglovchilar eshitishadi	A) Three girl are playing dolls B) Three long-haired girls are playing dolls

Chet tili fani pedagoglari yuqorida berilgan odatiy mashqlardan tashqari tinglash jarayonlarining keng tarmoqli turlaridan ham foydalanishi mumkin hamda bu orqali o‘rganuvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini ham rivojlantirib boradi. Ulardan biri intensiv tinglash bo‘lib, o‘qituvchi uch-besh daqiqalik qisqa audio material (qisqa podkastlar yoki YouTube videolari)ni tanlaydi. Tinglashdan oldin, mavzu haqida tinlovchilarga o‘ylab ko‘rish va qanday lug‘atni eshitishlari mumkinligini uchun vaqt

beriladi. Bunda audiomaterial o‘rganuvchilarning qiziqishlari yoki o‘tiladigan mavzuga qarab tanlashlari mumkin bo‘ladi. Bunday audiomatnlarga mashq tuzayotganda albatta o‘quvchilarning bilimdarajalari va yoshlarini hisobga olish lozim. Agar tinglovchilar yuqori sinf bo‘lsa, bir marta tinglaydi va asosiy fikrlarni yozishad. Bu kabi qisqa podkastlar faqat bir nechta asosiy fikrlarni o‘z ichiga oladi. So‘ngra podcast qayta tinglanadi va birinchi marta o‘tkazib yuborgan ma‘lumotni to‘ldirishga harakat qilishga imkon yaratadi. Uchinchi marta tinglanganda talaffuz yoki lug‘atga urg‘u beriladi. Shu turdagi mashqlarni qildirish orqali til o‘rganuvchilarning o‘z ustilarida mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishimizga yordam beradi.

Tinglovchilarning tushungan/ tushunmaganliklarini ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi bosqichlar orqali tekshirib ko‘riladi (shu paytda birinchi bosqich ham hisobga olinadi). Umumiy tushunish bosqichida javoblarning to‘g‘risini topish orqali tushunganlik tekshiriladi (multiple choice). Uchinchi (to‘liq tushunish) bosqichi tinglanganni qisqartirish yoki to‘ldirish yo‘li bilan tekshiriladi va shu tarzda davom etadi.

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, ikkinchi va uchinchi marta eshitish audiomatnni tushunishga yordam beradi, undan keyingi tinglashlardan unchalik naf ko‘rilmaydi. Audiomatn asosida gapirishni tashkil qilsa bo‘ladi. Bu ish usuli diafilm va kinofragmentlar materialida ham o‘tkazilishi mumkin.<sup>13</sup>

Ammo tinglash jarayonlarining hammasini ham dars jarayonida qo‘llash mushkul bo‘lishi mumkin. Misol uchun, keng qamroli tinglab tushunish mashqlarini qildirish dars uchun ajratilgan vaqtni qamrab olishi mumkin. Ammo bu turdagi audiomatnlar ham o‘rganuvchilarning tinglab tushunish ko‘nikmasini oshirishda yordam beradi. Bu turdagi mashqlardan dars mashg‘ulotlaridan tashqari holda ya‘ni sinfdan tashqari mashqlarda foydalansa bo‘ladi. TED suhbatlari va YouTube kanallari ham keng qamroli tinglash uchun ajoyib manba hisoblanadi.

<sup>13</sup> J.Jalilov. “Chet tili o‘qitish metodikasi” “O‘QITUVCHI” NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI TOSHKENT - 2012

Rivojlanib borayotgan asrda hamda ta’limga bo‘lgan e’tiborlarni hisobga olgan holda chet tilini o‘qitishda o‘z-o‘zini baholash qo‘llanmalaridan ham foydalanishimiz mumkin. Uning aynan tinglab tushunish uchun ham yaratish va uni SAC listening material (self-assess) deb nomlaymiz. Susan Sheerin ning ta’kidlashicha bu turdagi til o‘rganuvchilari audiomatn savollariga o‘zlarinig savollari hamda sharhlarini materialning keying foydalanuvchisi uchun mashq varaqalariga qo‘shishlari lozim.

Audiomatni tushunganlikni tekshirish maqsadida yaratilgan mashqlar pedagogdan muayyan metodik mahorat talab qiladi. Tekshirishdan ko‘zlanadigan maqsad, tinglab tushunish malakasining shakllanganligi hamda tinglanganni idrok etib fahmlaganlik darajasini aniqlashdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Emile Dodds “Intensive Listening vs. Extensive Listening in English” Published on June 27, 2022.
2. J.Jalilov “Chet tili o‘qitish metodikasi” “O‘QITUVCHI” NASHRIYOT MATBAA IJODIY UYI TOSHKENT – 2012
3. Tony Lynch “Teaching second language listening” Oxford University Press 2009
4. <https://englishpost.org/>